

INGLIZ TILIDAGI QISQARTMALARNING LINGVISTIK TUZILISHI VA KOMMUNIKATIV-FUNKSIONAL TADQIQI

Shukurova Madina Askarovna

Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi qisqartmalar (abbreviations) turlari, tuzilishi va ularning og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Maqolada initialism, acronym, clipping, blended words va contraction turlari batafsil ko‘rib chiqilib, ularning lingvistik va funksional xususiyatlari tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar: qisqartmalar, initialism, acronym, clipping, blended words, contraction, lingvistika, muloqot, ingliz tili

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА И КОММУНИКАТИВНО-ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СОКРАЩЕНИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Шукурова Мадина Аскарровна

*доцент кафедры английского языкознания
Бухарского государственного университета, PhD*

Аннотация: В данной статье рассматриваются типы сокращений (abbreviations) в английском языке, их структура и использование в устной и письменной речи. Подробно анализируются initialism, acronym, clipping, blended words и contraction, а также объясняются их лингвистические и функциональные особенности.

Ключевые слова: сокращения, initialism, acronym, clipping, blended words, contraction, лингвистика, коммуникация, английский язык

THE LINGUISTIC STRUCTURE AND COMMUNICATIVE-FUNCTIONAL STUDY OF ABBREVIATIONS IN ENGLISH

Shukurova Madina Askarovna

*Associate Professor of English Linguistics Department, PhD
Bukhara State University*

Abstract: This article examines the types, structure, and usage of abbreviations in English in both spoken and written communication. It discusses initialisms, acronyms, clippings, blended words, and contractions, explaining their linguistic and functional features.

Keywords: abbreviations, initialism, acronym, clipping, blended words, contraction, linguistics, communication, English

Hozirgi barcha sohani egallab olgan axborot texnologiyalari asrida kommunikatsiya va yozishmalar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Kun sayin ko‘plab ma’lumotlarga duch kelishimiz muloqotlarimizda ixchamlikka intilishimizga olib keldi. Shu tariqa tilshunoslikka qisqartma yoki abbreviatura termini kirib keldi. Qisqartmalar nomidan ma’lum bo‘lgandek so‘z yoki so‘z birikmalarining qisqartirilgan shakli bo‘lib ular qisqartirilmagan shakli bilan bir xil ma’no bildiradi. Qisqartmalar ingliz tilida abbreviation (lotincha “brevis” – qisqa) deb yuritiladi. Shuning uchun o‘zbek tilida abbreviatura degan tushuncha ham mavjud. “ABBREVIATURA [ital. abbreviatura < lot. abbrevio – qisqartiraman] tilsh. ayn. qisqartma so‘zlar. Dramato‘garak (drama to‘garagi). DAN (Davlat avtomobil nazorati), XDP (Xalq demokratik partiyasi) va h.k.”.¹⁵ Oxford English Dictionary esa qisqartmaga quyidagicha ta’rif beradi: “Qisqartma – so‘z yoki iboraning to‘liq shaklini ifodalaydigan qisqartirilgan shakli bo‘lib, odatda bosh harflar, so‘z qismlari, belgilar yordamida hosil qilinadi”.¹⁶ Qisqartmalar til boyligi va ixchamligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ular insonlarning vaqti va harakatini tejagani uchun har bir tilda uchraydi. Bundan tashqari, ularning soni zamonaviy texnologilar va ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida kundan kunga ko‘paymoqda, chunki hozirgi globallashuv jarayonida insoniyat uchun vaqtni tejash va aniqlik muhim o‘rin tutyapti. Qisqartmalar, asosan, ilm-fan, tibbiyot, texnologiyalar va siyosatda ko‘p uchraydi. Ular terminlarni tizimlashtirish (UNESCO, DNA, O‘zR), zamonaviy texnologiyalarni ifodalash (Wi-Fi, AI, PDF) va xalqaro aloqa vositalarida qulaylik yaratish (NATO, EU, FIFA) kabi bir qator funksiyalarni bajarish bilan birga nutqiy uslubda o‘ziga xoslik yaratadi. Ammo ularning ahamiyati shu bilan cheklanib qolmaydi, ular ilmiylik yaratish bilan birga nutqdagi keraksiz takrorlarning oldini oladi.

“Qisqartma so‘z yasallishining eng samarali yo‘llaridan biri bo‘lib, zamonaviy xalqlarning ijtimoiy madaniy hayotida muhim rol o‘ynaydi. Qisqartirilgan nomlash tizimining tarixiy mustahkamlanishni namoyon etishi lingvistika va unga yaqin fanlarda, xususan sotsiologiya va madaniyatshunoslikda, qisqartmalardan foydalanish usullarini ilmiy jihatdan yaxshiroq tushunishga yordam beradi.”¹⁷ Bundan ko‘rinib turibdiki, qisqartma so‘zlar tilining boyishi uchun muhim omil hisoblanib, tilga zamonaviy kolorit beradi. Ular tarixan mavjud bo‘lgan va yillar davomida ko‘payib rivojlanib kelgan. Qisqartmalar tilga kognitiv samaradorlikni olib kiradi: murakkab atamalar qisqa, oson yodda qoladigan shakllarga o‘tadi, shu tariqa tez-tez qo‘llaniladigan leksik birliklar hosil bo‘ladi. Shuningdek, qisqartmalar tilning morfologik va sintaktik xususiyatlariga ham ta’sir qiladi – ular so‘z yasash qoidalari bilan birga yangi leksik birliklarga (masalan, akronimlardan yangi fe’l yoki sifat yasash) sabab bo‘ladi.

Qisqartmalar uslubiy jihatdan nihoyatda moslashuvchan va ular rasmiy va norasmiy nutqda har xil vazifalarni bajaradi. Rasmiy matnlarda qisqartmalar terminologik aniqlikni ta’minlaydi, hujjatchilik va ilmiy-texnik nutqning o‘ziga xos standartlashgan me’yorlarini tashkil qiladi. Bunday matnlarda abbreviatsiyalar odatda aniq talqin qilinadi, ular o‘quvchi

¹⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. I jild. Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2021. – B. 7.

¹⁶ Oxford English Dictionary, 2nd edition, Oxford University Press, 1989.

¹⁷ Blokh M.Y. Theoretical English Grammar (ruscha: Teoreticheskaya grammatika angliyskogo yazyka). Moscow: Vysshaya shkola, 1983. – P. 186.

tomonidan tushunilishi uchun birinchi marta to‘liq shaklda berilib, keyingi o‘rinlarda qisqa shaklda ishlatiladi. Rasmiy uslubning ixcham, aniq, takrorlarsiz bo‘lishi qisqartmalar qo‘llanilishi orqali ta’minlanadi. Norasmiy uslubda, ya’ni kundalik muloqot, internet tili, sms yozishmalari va yoshlar slangi (asosan, yoshlar orasida ishlatiladigan, rasmiy bo‘lmagan va ixcham ifodalar tizimi)da qisqartmalar ekspressivlik, qulaylik va tezkorlikni kuchaytiradi. Masalan, ingliz tilidagi OMG(*Oh My God!*), BTW(*By The Way*), IDK(*I Don’t Know*) kabi birliklar yoki o‘zbek tilida “t.me”(telegram havolasi / kanal manzili), “OAV”(Ommaviy Axborot Vositalari), “xoz.” (*hozir* – “hozirgi vaqtda” yoki “hozir” ma’nosida ishlatiladi), “magistr” o‘rniga “mag.” kabi shakllar muloqotni dinamiklashtiradi. Bundan tashqari, qisqartmalar norasmiy suhbatda o‘ziga xos emotsional bo‘yoq ham hosil qilishi mumkin.

Ingliz tilida qisqartmalar (abbreviations) juda keng qo‘llanadi va ular til tizimining muhim bir qismi hisoblanadi. Qisqartmalar matnni ixchamlashtiradi, muloqot tezligini oshiradi va murakkab terminlarni soddalashtirishga yordam beradi. Qisqartmalar nafaqat yozma matnda, balki og‘zaki nutqda ham keng qo‘llaniladi. Ular turli kontekstlarda – ilmiy maqolalarda, harbiy va texnik hujjatlarda, siyosiy va ijtimoiy matnlarda, shuningdek kundalik yozishmalarda ham ishlatiladi. Masalan, ilmiy va akademik matnlarda qisqartmalar murakkab tushunchalarni bir necha harf bilan ifodalash orqali matnning ixcham va o‘qilishi oson bo‘lishini ta’minlaydi, harbiy matnlarda esa strategik joylashuv yoki lavozimlarni tezkor identifikatsiya qilish imkonini beradi. Ingliz tilidagi qisqartmalar turlicha tuzilishga ega bo‘lib, har biri o‘z kontekstida aniq lingvistik va funksional rolni bajaradi. Shu sababli, ular nafaqat axborotni tezkor yetkazish vositasi, balki matnning stilistik va semantik jihatlarini boyituvchi muhim lingvistik birlik sifatida ham ahamiyatlidir. Zamonaviy ingliz tilida to‘rtta asosiy qisqartma turi mavjud:

1.Initialism. So‘z birikmasining bosh harflaridan tuziladi va harflab talaffuz qilinadi. Har bir harf alohida o‘qiladi. Masalan: *FBI* – /ef-bi-ai/; *BBC* – /bi-bi-si/; *USA* – /ju:-es-ei/.

Misollar: *FBI* – *Federal Bureau of Investigation*; *BBC* – *British Broadcasting Corporation*; *UN* – *United Nations*; *EU* – *European Union*; *HR* – *Human Resources*.

Initialismning grammatik xususiyatlariga keladigan bo‘lsak, bunday so‘zlarga ko‘plik qo‘shimchasi -s harfdan keyin qo‘yiladi: *CDs*, *NGOs*, *MPs* Odatda, nuqta qo‘yilmaydi (*Dr*, *Mr* kabi qisqartmalar bundan mustasno).

2.Acronyms. Qisqartmalarning ikkinchi turi acronyms deb atalib, ular ham bosh harflardan tuziladi, ammo bir so‘z sifatida talaffuz qilinadi.

Talaffuzi: *NATO* – /nertov/; *UNESCO* – /ju:’neskov/; *NASA* – /’næsə/

Misollar: *NATO* – *North Atlantic Treaty Organization*; *NASA* – *National Aeronautics and Space Administration*; *UNESCO* – *United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization*; *AIDS* – *Acquired Immune Deficiency Syndrome*; *RADAR* – *Radio Detection And Ranging*.

Bu turdagi qisqartmalar xalqaro tashkilotlar nomlarida, ilmiy va texnik atamalarda, shuningdek harbiy terminologiyada keng qo‘llanadi. Ba’zi acronymlar vaqt o‘tishi bilan oddiy so‘zga aylangan: *radar*, *laser* kabi so‘zlar avval acronym bo‘lgan, keyinchalik esa umumiy lug‘at tarkibiga kirib, kichik harflarda yozila boshlagan.

3.Clipping. Ingliz tilidagi qisqartmalarning yana bir turi clippings so 'zning ma'lum qismini olib tashlab, soddalashtirilgan shaklini hosil qilish demakdir. Bu tur odatda kundalik mulohotda keng tarqalgan bo'lsada, ko'plab shakllarini rasmiy tilga ham kirib borgan. Masalan, ad (advertisement), lab (laboratory), photo (photograph), exam (examination), gym (gymnasium) kabi shakllar so'zning boshi, o'rtasi yoki oxirini qisqartirish orqali hosil qilinadi. Clippinglarning o'ziga xos jihati shundaki, ular oddiy so'z sifatida ishlatiladi va ko'pincha kichik harflar bilan yoziladi.

Transparent clipping: *sister*→ *sis*; *champion*→ *champ*; *plane*→ *aeroplane*.

Non-transparent clipping: *umbrella*→ *brolly*; *microphone*→ *mike*; *Elizabeth*→ *Buff*.

4.Blended words or portmanteau words ikki yoki undan ortiq so'zlarning qismlaridan yangi so'z yasash hodisasidir. Eng mashhur misol: *brunch* = *breakfast* + *lunch*; *smog* = *smoke* + *fog*; *motel* = *motor* + *hotel*; *infotainment* = *information* + *entertainment*; *blog* = *web* + *log*.

"Aralash (blended) so'z bir martalik qisqartirish yoki ikki martalik qisqartirish natijasida hosil bo'lishi mumkin: single clipping-faqat bitta so'z qisqartiriladi: *emot(ton)* + *icon*→ *emoticon*, *stay* + *(va)cation* → *staycation*; double clipping-ikkala so'z ham qisqartiriladi: *situation* *com(edy)*→ *sitcom*, *am(oke)* + *(og* → *smog*)"¹⁸

Bulardan tashqari ingliz tilida contraction degan tushuncha bor. bu ingliz tilida ikki yoki undan ortiq so'zni birlashtirib, ularning bir qismini olib tashlash va apostrof (') yordamida belgilash orqali hosil qilinadigan qisqartma shaklidir. U asosan og'zaki nutqda tezroq va qulayroq ifodalash maqsadida ishlatiladi. Masalan, *let's*, *I've*, *you've*, *he's*, *She's*, *I'll*, *you'll*, *we'll*. Contractions va abbreviations o'rtasidagi farqni aniqlash doimiy ravishda olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Ba'zi mutaxassislar bunday so'z qisqartmasini faqat grammatik vosita yoki og'zaki nutqning tezkor shakli deb hisoblaydi, u yozma nutqda kamroq uchraydi, lekin ma'noni saqlab qoladi. Boshqalar esa uni keng ma'noda qisqartma shakli sifatida ko'rib, abbreviations bilan bir turga qo'yadi. Shu sababli, so'z qisqartmasining statusi va ularning til ichidagi roli borasida tilshunoslar o'rtasida yagona qaror mavjud emas va bu mavzu doimiy ilmiy munozaralarga sabab bo'lib keladi. Contraction – bu so'z, bo'g'in yoki so'z birikmasining og'zaki va yozma shaklining ichki harflar yoki tovushlarni tushirib qoldirish orqali hosil qilingan qisqartirilgan ko'rinishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press. 2003.
2. Cannon G. Abbreviations and Acronyms in English. London: Routledge. 2010.
3. Biber D., Conrad S., and Leech G. Longman Student Grammar of Spoken and Written English. Longman. 2002.
4. Crystal D., and Davy D. Investigating English Style. London: Longman. 1969.
5. Oxford English Dictionary Online. Abbreviations and Acronyms. Oxford University Press. 2023.

¹⁸ Pavlik R. A Textbook of English Lexicology I. Word Structure, Word-Formation, Word Meaning. Bratislava: Z-F Lingua, 2017. – P. 48.

6. Askarovna, S. M., & Djurabayevna, D. N. (2019). Some principles of the formation and development of ethical terms in the English language in the XVI-XVIII centuries. *International Journal on Integrated Education*, 2(6), 31-39.
7. Askarovna, S. M. (2021). General linguistic theories in English linguistics of the XVI-XVII centuries and the practice of norms in vocabulary. *European Scholar Journal*, 2(4), 504-506.
8. Shukurova, M. A. (2017). Coherence and cohesion as essential parts in effective writing. *Міжнародний науковий журнал Інтернаука*, (1 (1)), 143-145.
9. Askarovna, S. M. (2021, March). Comparative investigation on the semantic meaning of some terms of ethics of the XVI-XVII centuries. In *E-Conference Globe* (pp. 285-287).
10. Шукурова, М. А. XVI-XVIII АСРЛАРДА ИНГЛИЗ ТИЛИДА ЭТИКА АТАМАЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ДОИР БАЪЗИ МАСАЛАЛАР НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ЭТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ XVI-XVIII ВЕКОВ SOME ISSUES ON THE DEVELOPMENT OF TERMS OF ETHICS IN THE. *ANIQ VA TABIIY FANLAR*, 165.
11. Шукурова, М. (2023). REVIEW OF LINGUISTIC THEORIES IN THE ENGLISH LANGUAGE OF THE RENAISSANCE PERIOD. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 41(41).
12. Шукурова, М. А. (2021). Анализ специальной лексики английского языка XVI века по аспектам терминологичности. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(2).
13. Shukurova, M. A. (2017). Useful strategies in teaching grammar in english language classes. *Міжнародний науковий журнал Інтернаука*, (1 (1)), 146-148.
14. Askarovna, S. M. (2021). Historical background on the systematization of the vocabulary of ethics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 25-29.
15. Шукурова–БухГУ, М. А. (2020). КОРРЕЛЯЦИЯ СОЗНАНИЯ, ЯЗЫКА И СТИЛЯ НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОГО ИЗЛОЖЕНИЯ ПЕРИОДА XVI-XVII ВЕКОВ. *ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЧЕТ ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ* *Халқаро илмий-амалий анжуман 5-6 март 2020 йил*, 597.